

S.Djurayev, R.Tursunov, R.Sadikov, B.Muxitdinov

**OCHIQ MAYDONLARDA BARPO ETILADIGAN YANGI YIL BAYRAMI
ARCHALARINI O'RNATISH, MONTAJ QILISH VA FOYDALANISH
JOYLARINING TEXNIK MUSTAHKAMLIGI VA YONG'IN
XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNI TASHKIL ETISH BO'YICHA
YO'RIQNOMA**

Toshkent – 2022

UDK 614.844

O'zbekiston Respublikasi FVV Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy – tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan.

Mualliflar: S.Djurayev, R.Tursunov, R.Sadikov, B.Muxitdinov

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, Madaniyat vazirligi, va Sanoat xavfsizligi Davlat qo'mitasi bilan kelishilgan.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2021-yil 30-noyabrdagi 347-son buyrug'i bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi FVV YoXvaFV ITI Ilmiy-texnik Kengashining qaroriga asosan chop etilishiga tavsiya etilgan.

Ushbu hujjat rasmiy nashr sifatida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot institutining ruxsatisiz to'liq yoki qisman talqin qilinishi, tirajlanishi va tarqatilishi mumkin emas.

© S.Djurayev, R.Tursunov, R.Sadikov, B.Muxitdinov, 2022

Ochiq maydonlarda barpo etiladigan yangi yil bayrami archalarini o'rnatish, montaj qilish va foydalanish joylarining texnik mustahkamligi va yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'yicha YO'RIQNOMA

I-bob. Umumiy talablar

1. Mazkur Yo'riqnoma ochiq maydonlarda barpo etiladigan yangi yil bayrami archalarining texnik mustahkamligi va yong'in xavfsizligini ta'minlash tartibi hamda ularni montaj qilish, o'rnatish, va archalardan foydalanish jarayonida favqulodda vaziyatlarning oldini olish tartibini belgilaydi.

2. Ommaviy tadbirga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish, ommaviy tadbir tashkilotchisi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalari"ga va ushbu sohadagi boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Yangi yil bayrami archasi bayramona girlyandalar bilan bezatiladigan tabiiy igna bargli yoki yig'iladigan konstruksiya ko'rinishida bo'lishi mumkin.

4. Yangi yil bayrami archalarini o'rnatish va montaj ishlari tegishli standartlar, shaharsozlik norma va qoidalari talablariga muvofiq, qurilish ishlarini amalga oshirish va texnika xavfsizligini tashkil etish, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga, shu jumladan, ishlab chiqaruvchining yo'riqnomasi va ushbu Yo'riqnoma talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Yangi yil bayrami archasining texnik mustahkamligi, elektr va yong'in xavfsizligini ta'minlash hamda archaning atrofida yong'in xavfsizligi rejimiga rioya etilishini nazorat qilish qonunchilikka asosan mazkur ob'ektlarning rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

II-bob. Yong'in xavfsizligini ta'minlash talablari

6. Yangi yil bayrami archasini o'rnatish va montaj qilish davrida quyidagilar ta'minlanishi kerak:

yangi yil bayrami archalari konstruksiyalarining xavfsizligini, attraksionlar, savdo maydonchalari, tomoshabinlar uchun o'rindiqlar va boshqalarni archa konstruksiyalari balandligidan kamida **1,5 barobar** masofa uzoqlikda o'rnatish;

yong'in o'chirish vositalarining mavjudligi va yaroqliligini, ommaviy tadbir o'tkaziladigan ob'ekt xodimlari bilan favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan vaqtda harakatlanishni tartibga solish yo'riqnomalarini bilishini ta'minlash.

7. Sun'iy yangi yil bayrami archasining ignabargli shoxlarini yonuvchanlik darajasi jihatidan GOST 30244 "Qurilish materiallari. Yonuvchanlikka sinash

usullari”ga asosan **Yo1** (kuchsiz yonuvchan) yoki **Yo2** (mo’tadil yonuvchan) dan ko’p bo’lmasligi va sirt ustida alanga tarqalishi jihatidan **AT1** (alanga tarqatmaydigan) guruhiga muvofiq bo’lishi kerak.

8. Quyidagilarga yo’l qo’yilmaydi:

sun’iy yangi yil bayrami archa konstruksiyasining ichki maydonida bezaklar va boshqa yonuvchan buyumlarni saqlanishiga;

yong’in xavfsizligi yo’riqnomasidan o’tmagan shaxslarni qurilish-montaj, payvandlash va olovli ishlarni bajarishiga;

archani bezatish uchun yonuvchan va sintetik materiallardan tayyorlangan o’yinchoqlardan hamda yonish xususiyatini pasaytiruvchi tarkib bilan ishlov berilmagan paxta momiqlaridan foydalanishga;

tadbirlarning dasturiga (senariyga) ochiq olov va alanga effektli (sham, mash’al, pirotexnika mahsulotlari), yong’inga olib kelishi mumkin bo’lgan bengal olovlari va paqildoqlardan foydalanishni kiritilishiga;

9. Pirotexnika buyumlaridan foydalangan taqdirda bunday faoliyat turlarini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo’lgan tashkilotlar jalb etilishi kerak.

10. Yangi yil bayrami archasining turg’un asosi yonuvchan mahsulotdan ishlanganda (taxta, sahna va boshqalar), ularga yonish xususiyatini pasaytiruvchi tarkib bilan ishlov berish yoki uning turg’un asosini konstruktiv yong’inga qarshi himoyasi bo’yicha ishlarni amalga oshirish.

11. Qurilish, elektr uskunalari, yoritgichlar va boshqa bezak turlarini o’rnatish ishlari tugagandan so’ng, yangi yil bayrami archasining pastki konstruksiyasining butun radiusi bo’ylab kamida **1.0 m** balandlikda to’siq bilan o’ralishi kerak.

III-bob. Elektr qurilmalarning xavfsizlik talablari

12. Elektr tarmog’iga ulanish ishlari O’zenergoinspeksiya tomonidan texnik ko’rikdan o’tkazilgandan va ularning foydalanishga tayyorligi aniqlangandan so’ng Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-avgustdagi 555-son qarori bilan tasdiqlangan “Yuridik va jismoniy shaxslarni elektr tarmoqlariga ulash bo’yicha davlat xizmatlari ko’rsatishning ma’muriy reglamenti”da belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yangi yil bayrami tadbirlarini o’tkazish davrida elektr ta’minotidan (elektr qabul qiluvchi qurilmalarni) xavfsiz foydalanishni ta’minlovchi maxsus tayyorgarlikdan o’tgan elektrotexnik xodimlari orasidan mas’ul shaxslar tayinlanadi.

Elektr qurilmalarini montaj ishlari va o’rnatish “Elektr qurilmalarning tuzilishi qoidalari” (keyingi o’rinlarda–EQTQ) talablariga, elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilish Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan “Iste’molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari” va “Iste’molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi

qoidalariga (keyingi o'rinlarda – IEQTEQQ, IEQXTQ) muvofiq amalga oshirilishi kerak.

13. Bayram tadbirlarida elektr qurilmalarining ishonchli va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun elektr xo'jaligining umumiy holati uchun javob beruvchi mas'ul shaxs (bundan buyon matnda elektr xo'jaligi uchun javobgar shaxs) tayinlanishi kerak. Elektr xo'jaligi uchun javobgar shaxs elektr xavfsizligi bo'yicha tegishli guruhga ega bo'lgan elektrotexnik xodimlar (bosh energetik yoki muhandis-texnik xodim) orasidan tayinlanadi.

Elektr xo'jaligi uchun javobgar shaxs quyidagilarga majbur:

elektr qurilmalarining ishonchli, tejamli va xavfsiz ishlashini ta'minlashi;

elektr qurilmalar, uskunalar va elektr tarmoqlarning profilaktik tekshiruvlarini tashkil etish va amalga oshirish, shuningdek, himoya vositalari va yong'inga qarshi anjomlarning ishga yaroqli holatda saqlanishini ta'minlashi;

elektr uskunalarining ishida buzilish aniqlansa profilaktik va ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishi tashkil etilishini ta'minlashi;

elektr qurilmalarini ishlatish vaqtida yong'in xavfsizligi bo'yicha navbatchi xodimlarni o'qitish va yo'l-yo'riq berishni tashkil etishi.

14. Yangi yil bayrami archalarining elektr qurilmalarini elektr ta'minoti uchun loyiha yechimlarini tuzishda quyidagi talablar ta'minlanishi lozim:

yong'in va portlash xavfi zonalari va atrof-muhit sharoitlari sinfiga qarab kabellar, elektr simi, elektr dvigatellari, lampalar va boshqa elektr uskunalaridan foydalanishning to'g'riligi, shuningdek, qisqa tutashuv, yuklanish, ichki va atmosfera yuqori kuchlanishlari va boshqalarga qarshi himoya qurilmalaridan to'g'ri foydalanish;

bayram archasiga vaqtinchalik uslubda o'tkazilgan barcha kabel va elektr simlarini izolyasiya qoplamalari bilan ta'minlash;

220V va **380V** ega bo'lgan kuchlanishdagi elektr ta'minot uzatmalarini sun'iy yangi yil bayrami archasining yong'in xavfi bo'lgan zonalaridan tashqarida o'tkazish;

elektr ta'minlovchi kabel kirish joyi va tegishli nominali bo'lgan himoyalash apparatini o'z ichiga olgan umumiy uzuvchi (ajratuvchi) moslama, archadan kamida **10 m** masofada va ko'pi bilan **2 m** balandlikda o'rnatish;

har bir yangi yil bayrami archasining girlyandasi uchun alohida tegishli nominali bo'lgan himoyalash apparati, rozetka va nol shinalarni o'z ichiga olgan elektr quvvat qutilarini yangi yil bayrami archa girlyandalaridan kamida **1.5 m** masofada o'rnatish.

Yangi yil bayrami archalarining yoritilishini elektr ta'minotining namunaviy chizmasi ushbu yo'riqnomaning "**A**" **ilovasida** berilgan.

15. Yangi yil bayrami archalarini yoritish uchun, shuningdek, ular atrofida yorituvchi kompozitsiyalarni montaj qilishda **25V** dan yuqori bo'lmagan kuchlanishli

elektr girlyandalardan foydalanish kerak. Aks holda pastki elektr lampasining balandligi kamida **2.5 m** bo'lishi kerak.

Yangi yil bayrami archa girlyandalarini **220V** kuchlanishiga ulash joriy nominalga mos keladigan himoya o'chirish qurilmasi orqali amalga oshirilishi kerak.

Yangi yil archalarini har qanday ob-havo sharoitida yangi yil girlyandlari va bayram illyuminatsiyasi bilan bezatish uchun **IP56** va **IP65** himoya qilish darajasiga ega girlyandalar qat'iy qo'llanilishi kerak.

Izoh: IP20 va IP44 himoya qilish darajasiga ega girlyandalar faqat yopiq binolarda qo'llanilishi mumkin.

Yangi yil bayrami o'yinchoqlarni, bezaklarni, reklama va bayram tadbirlarining boshqa atributlarini elektr ta'minoti simlariga osib qo'yish taqiqlanadi.

16. Cho'g'lanma lampalardan foydalanilganda yong'in xavfsizligi choralari nazarda tutilib, ularning oldida va bevosita yaqinida o'yinchoqlar, bezatuv buyumlar, sun'iy yangi yil bayrami archasining ignabargli shoxlari va boshqa yengil yonuvchan moslamalar joylashtirmaydi.

17. Elektr simlarni bog'lamalari tarqatish qutilarida bajarilishi, shuningdek, ular qisqichlar, burama vintlar yordamida ulangan bo'lib, ulangan joylarning qobig'i asosiy simlarni qobig'iga teng bulishi kerak. Yuqoridagi talablarning barchasi boshqa elektr xavfsizligi talablari bilan birga elektr ta'minoti loyihalarida ham o'z aksini topishi lozim.

18. Ko'chma elektr qabul qiluvchi moslamalardan foydalanishni tashkil etish uchun IEQTEQQ talablariga muvofiq, kamida elektr xavfsizligi III-guruhiga ega bo'lgan mas'ul xodimlar tayinlanadi.

19. Ko'chma yoritish lampalar, himoya shisha qopqoq va to'rlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Ushbu lampalar va boshqa ko'chma elektr apparatlar uchun atrof muhit ta'sirlarga chidamli qobig'da, rezina izolyatsiyali, o'zakli mis simlardan bajarilgan egiluvchan kabellar qo'llanilishi zarur. Ko'chma yoritish moslamalarni va boshqa elektr apparaturalarni shtepsel uzgichlari mavjud bo'lgan elektr qutilar orqali ulashni amalga oshirish kerak. Sahnada yoki ularning ostida har qanday ochiq turdagi elektr saqlagich va tarqatish elektr qutilarni o'rnatish taqiqlanadi.

Kuchlanishni tartibga soluvchi barcha elektroapparatlar apparatura xonalarida o'rnatilishi zarur.

20. Sahnalashtirilgan yoki yoritish uchun lazer qurilmalaridan foydalanilganda, lazerlar ishlab chiqaruvchi bloklar yonuvchan konstruksiyalar va bezaklar sirtlaridan **1 m** dan yaqin bo'lmagan masofada yonmaydigan materiallardan tayyorlangan tagliklarga, apparatlar xonalariga o'rnatilishi kerak. Ishlatiladigan lazer qurilmalarining hususiyatlari yong'indan xavfsiz bo'lishi kerak.

Sofit va rampalarni o'rnatishda faqat yonmaydigan materiallardan foydalanish kerak. Sofitlar korpuslari ularni ushlab turuvchi trosslardan izolyasiyalangan bo'lishi kerak. Projektor va sofitlar sun'iy archalardan, bezaklardan va yonuvchan materiallardan ishlangan konstruksiyalardan kamida **1.5 m** uzoqlikda joylashtirilishi kerak.

Linzali projektordan yonuvchan bezaklargacha bo'lgan masofa kamida **2.0 m** bo'lishi kerak.

21. Elektr kabellari va elektr simlari montaj qilingandan so'ng, ularni himoya qobig'larini qarshilikka chidamliligi bo'yicha laboratoriya sinovlarini o'tkazish va dalolatnoma rasmiylashtirilishi kerak.

22. Yangi o'rnatilgan statsionar elektr qurilmalari, shuningdek, illyuminatsiya yoritish moslamalarini elektr tarmog'iga ulanishi O'zenergoinspeksiya tomonidan texnik ko'rikdan o'tkazilgandan va ularning foydalanishga tayyorligi aniqlangandan so'ng Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-avgustdagi 555-son qarori bilan tasdiqlangan Ma'muriy reglamentida belgilangan tartibda amalga oshirilishi kerak.

23. Yangi yil bayrami tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish vaqtida elektr toki urishi va yong'inlarning xavfi yuzaga kelishining oldini olish maqsadida elektr tarmoqlari, girlyanda, reklama yoritgichlari holatini doimiy nazorat qilib borishni ta'minlash zarur.

IV-bob. Ochiq maydonlarga o'rnatiladigan sun'iy yangi yil bayrami archalarining texnik mustahkamligi talablari

24. Barpo etilayotgan sun'iy yangi yil bayrami archalarining turiga ko'ra ustunli yoki sinchli konstruksiyalardan foydalanish kerak.

Ustunli turdagi sun'iy yangi yil bayrami archalari **22 m** dan ortiq bo'lmagan balandlikda barpo etilishi kerak. Bunday archalarni qurilmalari odatda, asos bo'lgan tag qismi yulduz shakilda yasalgan uzun va qisqa metall quvurlardan, qavat bog'lamlardan va ma'lum uzunlikdagi ignabargli shoxlardan iborat.

Eslatma. Ustunli turdagi sun'iy yangi yil bayrami archalari kuchli shamol esishiga chidamliligi past hisoblanadi.

Ustunli turdagi sun'iy yangi yil bayrami archalarning qurilmalarida, tross kengaytmalari ko'zda tutilishi va ular archa tagida o'rnatilgan qo'shimcha yuklar bilan sinch tokchalarini bog'lash kerak.

25. Sinch turidagi sun'iy yangi yil bayrami archalari **30 m** dan ortiq bo'lmagan balandlikda barpo etilishi kerak. Bunday archaning qurilmasi, odatda, markaziy ustun, tirgak, shuningdek, diagonallar, raskoslar, ulagichlar, qavatlararo gorizontall joylashgan ulanish halqalarni o'z ichiga olgan konus shaklidagi sinchlardan iborat bo'lishi kerak.

Eslatma. Sinch turidagi sun'iy yangi yil bayrami archalari kuchli shamolga bardosh beradigan qurilma hisoblanadi.

26. Ustun va sinch turdagi sun'iy yangi yil bayrami archalarning ko'taruvchi metall qurilmalarini loyihalari QMQ 2.01.07 "Yuklar va ta'sirlar" (1-sonli o'zgartirish), QMQ 2.03.05 "Po'lat konstruksiyalar. Loyihalash me'yorlari", GOST 23118-2012 "Po'lat qurilish konstruksiyalari", QMQ 2.03.11 "Qurilish konstruksiyalarini korroziyadan himoya qilish" talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

27. Yangi yil bayrami archalari, oldindan tayyorlangan, o'pirilib tushmaydigan, sirti talab darajasida tekis gorizontal va qattiq (beton, asfalt va hokazo) qoplamalarda o'rnatilishi kerak.

Sun'iy yangi yil bayrami archasini barpo etish ishlari maxsus tashkilot (brigada) tomonidan ob'ekt rahbarining bevosita nazorati ostida amalga oshirilishi kerak.

28. Agar yangi yil bayrami archasi o'rnatilgan joyda shamol esishi ehtimoli yuqori darajada bo'lsa, ularning barqarorligi uchun tagiga shartli ravishda yuk sifatida beton bloklar qo'llanilishi kerak. Archa tagida o'rnatilgan qo'shimcha yuklar bilan archani sinch tokchalarini bog'lash uchun ishlatiladigan mahkamlovchi tross uzatmalari hisob-kitob asosida montaj qilinishi zarur.

29. Ustunli va sinch turdagi sun'iy yangi yil bayrami archalarning texnik xususiyatlari, shuningdek, kerakli yuklarning vazni **1 va 2 jadvallarida** keltirilgan.

1-jadval

Balandligi, m	Pastki qavat halqalarni diametri, m	Yaproq novdalarning ergacha bo'lgan masofa, m	Og'irligi, kg	Archani yig'ilgan holatidagi hajmi, kub.m	Zarur bo'lgan yuk og'irligi, kg
19	8,6	1,35	4750	53,4	10600
20	9	1,4	5450	58,5	11700
21	9,4	1,5	5800	63,9	13000
22	10,2	1,5	7000	74,5	14300

2-jadval

Balandligi, m	Pastki qavat halqalarni diametri, m	Og'irligi, kg	Archani yig'ilgan holatidagi hajmi, kub.m	Zarur bo'lgan yuk og'irligi, kg
19	8,2	3150	27,1	8800
20	8,6	3600	30,5	8800
21	9,0	3980	33,5	10800
22	9,4	4350	36,0	11800

30. Ustunli va sinch turdagi sun'iy yangi yil bayrami archalarning tuzilishi va konstruksiyalarning yuklarini tahminiy ko'inishi **"B"** va **"V"** **ilovalarida** keltirilgan.

V-bob. Yakuniy qoidalar

31. Yangi yil bayrami archalarini o'rnatish va montaj ishlari tugagandan so'ng, ob'ektning rahbari manfaatdor tashkilotlar va nazorat organlarining ishtiroki bilan ushbu Yo'riqnoma talablariga muvofiq yangi yil bayrami archalaridan xavfsiz foydalanish va konstruksiyasining ishonchliligini ta'minlash uchun komissiya texnik ko'rigini o'tkazadi.

O'tkazilgan ko'rik natijalari asosida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish to'g'risida dalolatnoma tuziladi.

32. Ushbu Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, Madaniyat vazirligi, Qurilish vazirligi va Sanoat xavfsizligi Davlat qo'mitasi bilan kelishilgan.


O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi
11.11.2021-yildagi 02-02/2160-son

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
12.11.2021-yildagi 04-12-15-4984-son

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi
12.11.2021-yildagi 05-06/12845-son


O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi Davlat qo'mitasi
12.11.2021-yildagi 01/22-3390-son

Yangi yil bayrami uchun mo'ljallangan archaning illyuminatsiya chiroqlari elektr ta'minotining tahminiy rejasi




1-ustun; 2-umumiy ajratuvchi moslamasi (rubilnik); 3-kabel; 4-elekt kabel ustiga yopiladigan himoya qoplamasi; 5-elektrozetkaning saqlagichi; 6-umumiy himoya apparati; 7-elekt taqsimlash qutisi; 8-girlyanda; 9-rozetkalar; 10-shina N nol; 11-erlantirish; 12-archa qurilmasi.

Ustunli turdagi sun'iy archaning tuzilishi va mahkamlanishi



Sinch turdagi sun'iy archaning tuzilishi va mahkamlanishi



MUNDARIJA

1.	I-bob. Umumiy talablar.....	3
2.	II-bob. Yong'in xavfsizligini ta'minlash talablari.....	3
3.	III-bob. Elektr qurilmalarning xavfsizlik talablari.....	4
4.	IV-bob. Ochiq maydonlarga o'rnatiladigan sun'iy yangi yil bayrami archalarining texnik mustahkamligi talablari.....	7
5.	V-bob. Yakuniy qoidalar.....	9
6.	A-ilova. Yangi yil bayrami uchun mo'ljallangan archaning illyuminatsiya chiroqlari elektr ta'minotining tahminiy rejasi.....	10
7.	B-ilova. Ustunli turdagi sun'iy archaning tuzilishi va mahkamlanishi.....	11
8.	V-ilova. Sinch turdagi sun'iy archaning tuzilishi va mahkamlanishi.....	12

Djurayev Sobir Mirzayevich
Tursunov Rovshan Xasildjanovich
Sadikov Rustam Mansurovich
Muxitdinov Bahrom Baxodir o'g'li

**“OCHIQ MAYDONLARDA BARPO ETILADIGAN YANGI YIL BAYRAMI
ARCHALARINI O'RNATISH, MONTAJ QILISH VA FOYDALANISH
JOYLARINING TEXNIK MUSTAHKAMLIGI VA YONG'IN
XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNI TASHKIL ETISH BO'YICHA YO'RIQNOMA”
(Yo'riqnoma)**

Texnik muharrir: S.D.Najimov

Bosishga 10.08.2023 yilda ruxsat etildi.
Qog'oz bichimi 210x297. O'lchami A5.
Garnitura Arial. Ofset bosma.
Birinchi nashr
Adadi 300 dona.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi
Fuqaro muhofazasi instituti
Tahririyot-noshirlik bo'limida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Anaybuloq ko'chasi 3-uy.
Tel: (71) 266-50-36, 71 230-40-23.